

XIX ASR OXIRI XX ASR I-CHORAGIDA BUXORODA JADID MAKTABLARINING TA'LIM-TARBIYA TIZIMI

Axmadv Olimjon Shodmonovich
BuxDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada Buxoroda XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье научно исследовано на основе источников и литературы по проблемам образования и воспитания в Бухаре в конце XIX и первой четверти XX века.

Summary: In the following article the sources and literature related with the education-upbringing in Bukhara in the end of 19th first quarter of the 20th century is scientifically analyzed.

Tayanch so'zlar: manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa

Ключевые слова: Источник, источниковедение, образование, воспитание, системное образования, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе

Key words: Source, source studiers, education-upbringing, chain education, study, article, program, system, nontraditional education, school, madrassa.

Buxoro amirligida yangi usul maktablaridagi ta'lim- tarbiya amirlikda XIX asr oxirida vujudga kelgan. Yangi maktablarga usuli – savtiya, tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan.

1911 yilning boshlarida Mukomiliddin Burxonov tomonidan Buxoroda yangi usul maktabi ochiladi. Ushbu maktabdagi o'quvchilar soni 40 nafardan ortik bo'lgan⁹. Buxorodagi jadid maktablari ichida Mukomiliddin Burxonov tashkil etgan maktab o'zining jihozlanishi bilan ajralib turgan, unda oynalik derazalar, temirdan yasalgan pechkalar mavjud edi. Yangi o'quvchini qabul qilish, sinfdan sinfga ko'chirish, maktabni bitirish qat'iy tartibda bo'lgan, o'quvchilar bilimini baholash 6

⁹ Ёулдошев Н. Маърифат фидойилари // Гулистон. - Тошкент. 1991. - № 4. - Б.20-21.

ballik tizim bilan amalga oshirilgan, imtihonlar tashkil etilib, ular targ'ibot maqsadida oshkora, namoyishkorona tarzda o'tkazilgan¹⁰.

Buxoroda Amir Olimxon tomonidan amalga oshirilgan tadbirlardan biri - mavjud kichik-kichik (ba'zan 3-4 nafar o'quvchidan tashkil topgan) maktablarni yirikroq qilib birlashtirilishi, maktab o'qituvchilari uchun xazinadan maosh tayinlangan bo'lib, bu sohaga ozroq bo'lsa-da hukumatning aralashayotganligidan dalolat berar edi¹¹. Bu haqda o'sha davr matbuoti xabar qiladi.

1911-1912 yillarda Buxoro amirligi hududida yangi usul maktablarining soni 57 taga yetadi¹².

1912 yilning 9 oktyabrida Chorjo'yda Otaxo'ja (Otaulla Xujayev)ning yangi usul musulmon maktabi ochiladi. 1912 yilning boshlarida yosh buxoroliklarning faol a'zolaridan bulgan Usmon Xuja jadid maktablaridan birini kayta tashkil etadi¹³.

Usmon Xo'ja tashkil etgan jadid maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo'lish, bir kunda 4-5 soatdan ortik dars o'tmaslik, har bir darsdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e'tiborni dunyoviy fanlarni o'qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o'quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam olishni joriy qilish, 10 oylik tahsildan so'ng bolalarga ta'til berish, o'quvchilardan vakti-vakti bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug'va mumkin qadar shinam xonalarda o'qitib, o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar: globus va xaritalardan foydalanish qoidalariga e'tibor qaratilgan¹⁴.

1912-yilning oxirlarida Usmon Xo'janing qarindoshi Latif Xo'ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Shahar savdogarlari xomiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo'lib, har bir sinfda 3 ta globus, kitoblar, o'tirish va yozish uchun partalar, o'quvchilarga beriladigan daftarlar, o'quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo'lgan. Bitta sinfda boshlangich ta'lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta'lim olganlar o'qigan.

¹⁰ Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. - С.86.

¹¹ Туркестанские ведомости, 1911. - 14 апрель.

¹² Бендриков К.Е. очерки по истории народного образования в Туркистане (1865-1924). С. 260.

¹³ Бобожонова ф.Х. Бухоро амирилигида таълим тизими. - XIX аср охири XX аср бошлари. Бухоро - 2014. Б. 101.

¹⁴ Ўша жойда.

Darslarni Usmon Xo'ja va yosh buxoroliklar partiyasi a'zosi Mulla G'ulom Qodirali olib borgan. Darslar Samarqandda nashr etilgan fors-tojik tilidagi darsliklar asosida olib borilgan. 30 kishidan iborat ikki sinf o'quvchilarining barchasi Buxorodagi boy savdogarlarning farzandlari bo'lib, ular tez va to'g'ri o'qiydigan bo'lishgan. Mazkur maktabda tan jazosi qo'llanilmagan¹⁵.

1912 yilda Bozori Nav guzarida o'qituvchi Mullo Xamidxo'ja uyida yangi maktab ochiladi, unda 32 nafar o'quvchi bo'lib, darslar rus tilida olib borilgan. O'qituvchi Mulla Vafo darslarni Gramenidkiy darsligi asosida olib borgan. Ko'p o'quvchilar olti oyda rus tilida ravon yozib va o'qib bilgan Mulla Vafo maktabida 30-35 bola o'qigan. Bundan tashkari yana bir qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bunday maktablar Buxoro xalqining e'tiborini qozongan va o'zining kelajagi porlok ekanligini ko'rsatgan¹⁶.

Ayrim jadid maktablarida, masalan, Usmon Xo'ja, Xamid Xo'ja Mexriy maktablarida bir necha o'qituvchi ishlagan, shuning uchun pedagogika kengashi faoliyat ko'rsatgan, tanaffus paytida o'qituvchilar navbatchilik qilishgan.

Maktablar ko'pincha uning tashkilotchilari tomonidan ta'minlab turilgan, ayrim xollarda, ularga boy-badavlat kishilar Xomiylik qilib turishgan. Bulardan tashqari, maktablarning ta'minoti ota-onalar tomonidan beriladigan o'qish puli hisobidan xam yo'lga qo'yilgan. Masalan, Abdulvoxid Munzim (Burxonov) tashkil etgan maktabda o'qish puli oyiga 3 sumni tashkil etgan. O'quvchilarning 15-20 % i, asosan kambagallarning farzandi bo'lib, ular bepul o'qitilgan. Shuni ham e'tirof etish lozimki, yangi usul maktabida o'qish puli an'anaviy maktabga nisbatan ancha yuqoriroq bo'lgan, bu o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'lik edi: an'anaviy maktabda 6-10 yil o'qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o'qitilgan. Jadid maktablarida o'qitish bosqichlari u o'qitish usullari va o'qitiladigan fanlar aniq bo'lgan.

Jadid maktablari ikki bosqichda tashkil qilingan. Birinchi bosqich boshlang'ich, ikkinchi bosqich o'rta deb ataldi. Birinchi bosqichda tahsil muddati 4 yil (1-4sinflar) bo'lib, birinchi yili forscha, arabcha yozuv va o'qish o'rgatilgan. Qur'oni Karimdan suralar yod olingan. Hisob ilmi o'rgatilgan. Ikkinchi yilida Xaftiyak, iymon va e'tikod darslari, turkiy, forsiy va arabiy tillarda she'rlar o'qitilgan. Uchinchi yilida esa Qur'oni

¹⁵ Хайитов Ш. Бадриддинов С. Эслатилган китоб. Б. 47.

¹⁶ Ўша жойда.

Karim, islom ibodati, tajvid (qiroat ilmi), Sa'diydan nasihatlar (axloq ilmi), turkiy va, forsiy til (tilshunoslik ilmi) o'rgatilib, undan insholar yozdirilgan. Hisobdan turli taqvimiy va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilda Kalomi sharif tafsiri, mufassal tajvid, turkiy va forsiy tilida nazmu nasr (adabiyot), turkiy va forsiy til, hisob, tarix va jug'rofiya o'qitilgan.

Shuningdek, jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik (qattiq asos, gaz, xavo, issiq, sovuq), tabiiy bilim asoslari (shu jumladan, mineralogiya va hattoki anatomiya; ximiya va fizika elementlari) o'qitilgan¹⁷.

Mirzo Abdulvoxid maktabining yopilishi bilan xam mutaassiblarning ko'ngli joyiga tushmagan. Chunki Mirzo Abdulvoxidning maktabi yopilganidan keyin 50 dan ortiq o'quvchilar tatar maktabiga kirib o'qiy boshlaydilar. Ushbu xolga chiday olmagan buxorolik ulamolar Buxoro xukumatiga murojaat qilib tatar maktabining ham yopilishini talab qiladilar. Avvaliga Buxoro hukumati ham, Rossiya elchixonasi ham bu ishni hal qila olmadi, chunki tatarlar Rossiya fukarosi bo'lib, ular Buxoro hukumatiga bo'ysunmas edilar. Nihoyat, bir chorani topadilar: buxorolik bolalarni o'qishga olmaslik sharti bilan tatar maktabini ishlashiga ruxsat etiladi¹⁸. Shuningdek, tatar maktabining ham yopib qo'yilishi Buxoroda norozilikni keltirib chiqargan. Buxoroda yashayotgan tatarlar va yangi usul maktabi tarafdorlari bo'lgan yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari maktablarning yopilishi xususida shikoyat maktubi tayyorlab, uni I.Gaspirinskiyga topshirganlar. "Tarjimon" gazetasida buxorolik mullalar nomiga bitilgan ochiq maktublar ham e'lon qilinadi. "Rusiyadagi musulmon gazeta va majallalari, uzun maqolalar yozib, Buxoro hukumati va ulamosini to'g'ri tanqidlar qila boshladi. Ayniksa, xajviy "Mulla Nasriddin" majmuasi bu voqea munosabati bilan ma'nodor rasmlar bilan Buxoro ulamosi haqida bir saxifada, bir kitob ma'nini ifoda qila turgan narsalarni butun savodli va savodsizlarning ko'z oldilariga qo'ydi", - deb yozgan edi Sadridin Ayniy¹⁹.

Amirlikdagi diniy ulamolarning yangi usul maktablariga nisbatan munosabatlarini Fayzulla Xujayev quyidagicha ifodalaydi: "Dunyo buzildi, musulmonlikdan qaytgan bir necha boylar jadid maktablari ochib, oxista-

¹⁷ Қаранг. Турсунметова Г. XX аср бошларида Туркистон таълим-тарбия тизимида жади́д мактаблари. - Б. 124.

¹⁸ Айний С. Бухоро инқитоби тарихи учун материаллар. // Асарлар, I том. - Б. 213.

¹⁹ Айний С. Бухоро инқитоби тарихи учун материаллар. // Асарлар, I том. - Б. 213.

oxista bolalarimizni dindan chiqaralar. Olti oyda bolalarning xat va savodini chikarsalar madrasalar xarob bo'lar. Dehqon bolalari dono bulg'ondan keyin amirga soliq bermaydilar, xazina bo'shaladur. Xammamiz och qolurmiz"²⁰.

O'z vaqtida amir hukumati va jadidlar o'rtasidagi munosabatlarning guvohi bo'lgan Mirzo Salimbekning xotirlashicha, yangi usul maktablarida bolalar juda qisqa fursatda savod chikara borgani bois, uning obro'yi oshib borgan. Eski maktabdan ko'pchilik yuz o'girib, mullalar, harbiy-sipohlar, savdogarlar, do'kondorlar bolalarini yangi maktabga o'qishga bera boshlashgan. Yangi usul maktablaridagi darsliklarning hammasida diniy qoidalariga alohida e'tibor berilgan edi²¹. Ammo Keyinchalik bu maktablarda dunyoviylik kuchayib borgan.

Yangi usul maktablari nafaqat Buxoro shaxrida, balki amirlikning barcha beklik va tumanlarida xam faoliyat ko'rsatadi.

1908-1912 yillarda Karkida tatar bolalari uchun maktab, rus tilini o'rganuvchilar uchun ochilib, kutubxonalar ishga tushadi. Qori Yo'ldosh Po'latov, Fazliddin Maxsum, Hoji Jurakul, Abdufattoxjonlar bu jarayonda faol ishtirok yetishgan. Amirlikning Shaxrisabz bekligida Islomkul To'qsabo o'z uyida yangi usul maktabi ochib, unda ishlash uchun Toshkent va Samarqanddan bir necha muallimlarni taklif etgan²². Ushbu muallimlar tomonidan keyinchalik bir necha maktablar tashkil etilgan.

1913-yilda amirlikning Gijduvon tumanida Abdul Hakim Xo'ja bir necha yangi usul maktabini ochishga muvaffaq bo'lgan. Uning o'zi ochgan maktablari uchun darsliklar yozgan, yoshi kattalar uchun kechki maktablar tashkil etilgan²³.

1913-yilda Qorako'l tumanida amlokdor Gulom Qodir bilan Qozi Ikrom bir maktab ochib o'z bolalarini va xohlovchilarning bolalarini o'qitishni tashkil etgan. Bu yerda Sulaymonxo'ja tomonidan gazeta tarqatilib, kitoblar keltirilib, kutubxona ishi yo'lga qo'yilgan. Shofirkon va Vobkent tumanlarida ham yoshlar bilan ishlash, adabiyotlar tarqatish va maktablar ochish ishi tashkil etilib, tatar muallimlaridan foydalanilgan²⁴.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yangi usul maktablari 1910, 1911, 1912, 1913-yillarda amirlik hududlari bo'ylab keng tarqalgan,

²⁰ Хужаев Ф. Хотирамда // Бухоро ахбори. 1921.- №48.

²¹ Мирза Салимбек. Тарихи-Салими (источник по истории Бухарского эмирата). — Ташкент: Академия, 2009. С. 207.

²² Бухоройи шариф. 1912.- 18 июнь.

²³ Ўша жойда.

²⁴ Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун матсриаллар. Асарлар, 1 том. — Б 245.

garchand, ularning o'quvchilari unchalik ko'p bo'lmasa-da, yangi usuldagi maktablar to'grisidagi tasavvurni shakllanishiga hamda axolining ushbu maktabga nisbatan xayrixoh bo'lishiga yordam bergan. Amirlik hukumati cheklangan tarzda bo'lsa ham ta'lim tizimini isloh qilish ishiga bir muncha muddat e'tibor beradi. Sadriddin Ayniy ta'kidlaganidek, ushbu maktablar "nim (yarim) islox maktablari" edi.

1912-1913 yillarda maktab ochish, uning o'quv jarayonlarini to'g'ri tashkil etish ishida ma'lum darajada siljish kuzatilgan. Qozi Burhoniddin kabi mutaassiblarning Buxorodan quvilishi, ayrim mansabdorlarning vazifasidan chetlashtirilishi oqibatida maktablar masalasida vaqtinchalik mu'tadillik vaziyati yuzaga keladi.

1912-1913-yillarda Buxoro shaxrida mullo Abulqosim, Mukomoliddin Maxsum, Giyos Maxsum Xusain tomonidan yashirin maktablar ochilib, ularda 100 dan ortiq bola o'qishgan²⁵.

Govkushon xovuzi bo'yida, Xovuzi Arbob guzarida maktablar ishlay boshlaydi. Poyi Ostona guzarida ruscha va musulmoncha maktab ochiladi. Xiyobon guzarida Mirzo Ismoilbekning ukasi tomonidan kattalar uchun savod chikarish maktabi tashkil etilib, unda xat-savod o'rgatish, hisob va geografiya o'qitiladi²⁶.

Buxoro shahrining Mor Kushon va ikkinchi Xiyobon guzarlarida ochilgan maktablarni shaharning boy savdogarlari ta'minlab turgan. Abul Qosim maktabidagi o'quvchilar soni 300 nafardan ortiq bo'lib, ukuv ikki smenada olib borilib, darslar Texron (Eron)da nashr etilgan darsliklar asosida tashkil etilgan²⁷.

Buxoroda jadidchilik xarakatining jonkuyarlaridan biri Ota Xo'ja Pulatxo'jayev (Otaulla Xo'jayev)dir. U maslakdoshlari bilan yangi usul maktabini ochadi, bir necha oydan sung bu maktab amir xukumati tomonidan yopib qo'yiladi. Shunday bo'lsa-da, u taqiqlarga qaramay, Buxoroda yashirincha kechki maktablar ochishda faol qatnashadi: Abdurauf Fitratning o'zi ham 1913-1914 yillarda Ota Xo'ja Pulatxo'jaev bilan birga Shaxrisabz va Karkida maktablar ochish bilan mashg'ul bo'lgan.

1914-yilda Buxoroda nom chiqargan, mashhur Usmon Xo'janing maktabida 200 nafar, Eshon Xomid Xo'janing maktabida (Bozori Nav guzarida) 100 nafar, Mulla Vafoning maktabida 80 nafar o'quvchi ta'lim

²⁵ Ўша жойда. Б. 270-275.

²⁶ Ўша жойда. Б. 245.

²⁷ Бухоройи шариф. 1912. 29 ноябрь.

olgan. Bulardan Mulla Vafoning maktabida darslar rus tilida olib borilgan²⁸. Rus tilidagi maktabga asosan, savdogar, tijoratchilarning bolalari borgan. Yangi usul maktablarining ko'pchiligida mayda savdogar va kambagallarning bolalari ta'lim olishgan. Buning asosiy sababi-hukumat tomonidan jadid maktabiga tazyiq o'tkazilishi edi. Shu boisdan boy tabaqa yangi usul maktabidan xavfsirar edi.

1914-yilga kelib Buxorodagi barcha yangi usul maktablari kattiq qarshilikka uchraydi. Amirlikning o'ta mutaassib ruhoniylari jadid maktablari xususida shunday "fatvo" berishadi: "U (ya'ni maktab) shariatga qarshi. Birinchi yilda o'quvchilar gazeta o'qiydi, ikkinchi yilda ozodlik talab qiladi, uchinchi yilda esa oliy hazratlarini taxtdan ag'daradi".

Amirlikping chekka hududlaridagi yangi usul maktablari ham tazyiqqa uchraydi. Masalan, Qorako'ldagi amaldor G'ulom Qodirning maktabi ham

1914-yilda amirning farmoni bilan yopiladi²⁹.

1914-yilda "Oyina" jurnalida Mirzo Ulugbek jome' masjidining muazzini 5-6 ming kishi huzurida "kim bolasini usuli jadid maktabiga bersa, o'zi kofir, xotuni taloq", deb aytgani haqida ma'lumot beriladi.

Shunga o'xshash ma'lumotni "Turkiston viloyati gazetasi"da uchratdik. Bu ma'lumotda: "Ba'zi ulamolarnig fikricha, usuli jadidni o'qigan bola kofir bular emish. Shuning uchun bolalarni u yerga yubormanglar deganlar. Ammo u yerda Kur'on qoidalari, farzi-ayn kabi islom asoslari o'qitilar edi. Yana mullalarning ba'zisi usuli jadid maktablarida bolalar stol-stullarda o'tirishini ko'rib, bu kofirlarning stuli der edilar".

1914-yil 4-iyulda amir Olimxon odatdagidek juma namoziga borgan paytida mutaassib ruhoniylar yangi usul maktablarini yopish to'grisida shikoyat qilishadi. Qozikalon Burhoniddin jadid maktablarini badnom qiluvchi va bu maktablarni tezda yopishga qaratilgan quyidagi mazmunda amir Olimxonga ariza yozadi: "Amir marxum davrlarida ulamoning fatvolari bilan usuli jadid maktablarining harom va bid'atligi sobit bo'lib, janobi oliyning amrlari bilan yopilgan edi. Bir necha vaqtdan beri yana mufsid jadidlar bosh ko'tarib, shaharning har tarafida maktablar ochib, xalqning bolalarini buzib, fitna va fasod kuzg'atib yuribdurlar. Agar janobi oliyning amrlari bilan ushbu maktablar tezlik bilan bog'lanmasa,

²⁸ Шарипов Р. Туркистон жадидчилиқ ҳаракати тарихидан. Тошкент. Ўқитувчи. 2002. Б. 107.

²⁹ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Асарлар, 1 том. — Б 245.

mullabachchalar bu bid'atni barham bermoq uchun uzlari kuzg'alishlari aniqdir. U holda mamlakatda fitna va fasodlar ko'payib, davlati oliyga zarar yetishi ehtimoldir³⁰.

1914-yilning 5-iyulida amir Said Olimxonning farmoni bilan Buxorodagi barcha jadid maktablari yopiladi, maktab tashkilotchilari va muallimlari aksariyati shahardan chiqarilib yuboriladi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusattor Jumanazar. O'rgimchak kitobi. – T.: YAngi asr avlodi, 2003. - 96 b.
2. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – T.: Akademikash, 2017. - 592 b.
3. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi (Forsiydan A.Irisov tarjimasini). – T.: Fan, 1991. - 32 b.
4. Anke fon. Kyugel'gen. Legitimasiya sredniziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istochnikov – Almati: Dayk-Press, 2004. – 516 str.
5. Arifdjanov E.Q. XX asr boshlarida Buxoro madaniyati: haqiqat va afsona. T.:O'z RIIV Akademiyasi, 1998. -101 bet.
6. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. T.:O'qituvchi, 1994. - 432 bet.
7. Barkomol avlod orzusi – T.: SHarq, 1998. -141 bet.
8. Bobojonova F.H. Buxoro amirligidagi ta'lim tizimi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) –T.: 2014. -128 bet.
9. Bobojonova F.H XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi madrasa tizimi Pedagogika maxorat.-Buxoro, 2007-№2 – B 30-35.
10. Bobojonova F.H Buxoro amirligidagi ta'lim tizimi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro. (to'plam) Buxoro, 2016. B 89-91.
11. Bobojonov A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. T.: O'qituvchi, 1962. -136 bet.
12. Vohidov SH, CHoriev Z. Sadr Ziya i yego biblioteka (Iz istorii knigi i knijnoy kultury v Buxare v nachale XX veka) Kniga 1- T.: YAngi asr avlodi, 2007. -184 str.

³⁰ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Асарлар, 1 том. — Б 210.